

TASAVVUF DURLARINING BARHAYOT RASHHALARI

Qamariddinova Gulrux Akmal qizi-Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi
gulruxqamariddinova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Faxruddin Ali Safiyning “Rashahotu aynil-hayot” asaridan o‘rin olgan tasavvufning yirik namoyondalari, xo‘jagon silsilasining so‘fiylari bo‘lmish Yusuf Hamadoniy va uning mashhur to‘rt shogirdlari – Xoja Abdulloh Baraqiy, Xoja Hasan Ondoqiy, Xoja Ahmad Yassaviy hamda Hazrati Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyning qisqacha hayotlari hamda ilmiy ijodlari haqida bayon etilgan. Qolaversa, maqolada, asarda keltirib o‘tilgan, tasavvuf olimlarining rashhalari falsafiy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, rashha, so‘fiylik, tariqat, faqih, xojagon, xalifa, kunya, dahae, manoqib, silsilat uz-zahab, fuqahoyi sa‘ba, rishta.

“РАШХА”- ВЕЧНАЯ МУДРОСТЬ СУФИЗМА

Камариддинова дочь Гульруха Акмаля - Преподаватель кафедры
«Социальные науки» Бухарского инженерно-технологического
института

gulruxqamariddinova@gmail.com

Аннотация: В данной статье из труда Фахруddина Али Сафи взяты основные представители суфизма, суфии Ходжаган, Юсуф Хамадон и четыре его знаменитых ученика - Ходжа Абдулла Бараки, Ходжа Хасан Ондок, являющиеся крупными представителями суфизма. “Рашахоту айнил-хоят», описаны краткая жизнь и научные труды Ходжи Ахмада Яссави и Хазрата Ходжи Абдулхалика Гиждувани. Кроме того, в статье философски анализируются критические замечания ученых-суфистов, приведенные в работе.

Ключевые слова. Суфизм, раша, суфизм, тарикат, факих, ходжаган, халиф, кунья, дахае, манокиб, силсилат уз-захаб, фукахойи саба, ришта.

“RASHHA” - THE ETERNAL WISDOM OF SUFISM

Qamariddinova is the daughter of Gulrukh Akmal -Teacher of the Department of "Social Sciences" of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

gulruxqamariddinova@gmail.com

Annotation: In this article, the major representatives of Sufism, the Sufis of the Khojagan series, Yusuf Hamadoni and his four famous students - Khoja Abdullah Baraqi, Khoja Hasan Ondoqi, who are the major representatives of Sufism, taken from Fakhruddin Ali Safi's work "Rashahotu Aynil-Hayat", The brief lives and scientific works of Khoja Ahmad Yassavi and Hazrat Khoja Abdulkhaliq Gijduvani are described. In addition, the article philosophically analyzes the criticisms of Sufism scholars cited in the work.

Key words. Sufism, rashha, Sufism, tariqat, faqih, khojagan, caliph, kunya, dahae, manoqib, silsilat uz-zahab, fuqahoyi sa'ba, rishta.

Kirish

“Tasavvuf”so‘zi “so‘f” ya’ni jun kiyimni kiyish, so‘fiy bo‘lib haq yo‘lidan yurish va shuningdek darvishlar tariqasi ma’nolarida qo‘llaniladi. “Tasavvuf” so‘zi istiloh (atama) sifatida bir ma’naviy tariqatdan iborat bo‘lib, uning payrovlari aqidasi binoan nafas (ichki dunyo) ni pokizalash natijasida haqiqat yog‘dusi inson qalbida porlay boshlaydi [1]. Faxriddin Ali Safiy o‘zining “Rashhotu aynil-hayot” asarida tasavvuf namoyondalarining qisqacha hayotlari va ularning odob-axloqqa oid qarashlari bayon etilgan. Qanday g‘oya, maqsad, mafkuraviy manfaat ko‘zlanganligidan qat’iy nazar, “Rashhotu aynil hayot” Xoja Ahror, xojagon-naqshbandiylik, umuman, Movarounnahrda tasavvuf va uning tariqaylari haqida puxta va ishonchli birlamchi ma’lumot beruvchi manbadir [2]. Chunki bu asarda muallif Xoja Ahrorning shaxsan o‘zidan eshitgan so‘zlarini, o‘zi suhbatdosh bo‘lgan insonlardan hamda shogirdlaridan eshitgan ma’lumotlarini jamlagan edi. Ushbu tariqat egalari haqidagi ma’umotlarni ham xronologik ketma-ketlikda ifodalagan. Asarning maqola, 3 fasl va xotimadan iboratligi ham ushbu aniq izchillikda yozilganligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Dastlab “rashha” degan tushunchaga to‘xtalsak, rashha – tomchi, sizib chiqqan suyuqlik degan ma’noni bildiradi [3]. Tasavvuf istilohi sifatida esa xojagon-naqshbandiyagi maxsus qoida, odob va talablar nazarda tutiladi. Xojagon – ulug‘ zotlar, buyuk xojalar demakdir. Xojagon-naqshbandiya tariqatining mashhur o‘n bir rashhasi quyidagilar: hush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yodgard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht, vuqufi qalbiy, vuqufi adadiy, vuqufi zamoniyy [4]. Manbalarga ko‘ra, ushbu rashhalarning dastlabki sakkiztasi G‘ijduvoniyy hamda uchtasi Bahouddin Naqshband tomonidan ishlab chiqilgan. Lekin ushbu rashhalarning avvalgi to‘rttasini Yusuf Hamadoniyy tariqat ta’limotiga kiritgan, degan qarashlar ham mavjud. Dastlab, Movarounnahrda tariqat maktabiga asos solgan pirlardan biri Hamadoniyy to‘g‘risida so‘z yuritsak. Yusuf Hamadoniyy 1048-yilda Hamadonning Buzanjird qishlog‘ida tug‘ilgan.

Shayx Yusuf Hamadoni 18 yoshlarida Bog'dodga borib ta'lim olishni boshlaydilar. U yerda Abu Ishoq faqihdan fiqh (islom huquqshunosligi) ilmini o'rganadilar hamda nazariy ilmda kamolot darajasiga erishadilar. Mazhab jihatdan Abu Hanifa (rahmatullohi ta'alo) ning yo'llaridan edilar. Qolaversa, Buxoro, Samarqand, Iroq, Xuroson, Isfahonda ilm o'rganishni davom ettiradilar va hadisdan ta'lim beradilar, ma'vizalar o'tkazib turar edilar. Shayx Abdulloh Juvayniydan hirqa kiyganlar. "Valodatlarida sana to'rt yuz qirqda (1049) erdi va vafotlarida sana besh yuz o'ttuz beshda (1139) erdi. Vaqtekim, Hirotidan chiqdilar, yo'lda vafot topdilar va ul joydakim, vafot topib erdilar, shu joyda dafn etdilar. Va ayturlarkim, ondin so'ng Ibn Najjorkim, olorning muridlaridan erdi, jasadi muboraklarini Marvg'a keltirdi va qabri muboraklari ul joyda turur, yuzoru va yutabarraku bihi [5]. Bugungi kunda Shayx Hamadoniyning qabrlari Buxorodagi Giobod (Gulobod) darvozasidan tashqarida deyilsa-da u ramziy qabr bo'lib hisoblanadi hamda Xorazm viloyati Shovot tumanidagi qabrlari ham ramziy qadamjolardandir. Asl qabrlari Turkmanistonning Mari shahrida joylashgan. Keyinchalik Shayx Yusuf Hamadoniyning ushbu yo'lini to'rt mashhur shogirdlari davom ettiradilar.

Xoja Abdulloh Baraqiy – Hamadoniyning birinchi xalifalaridan hisoblanadi. Xorazm viloyatidan ekanligi va hunarda ajdodlari barrafurushlik qilganliklari to'g'risida Safiy o'z asarida bayon etadi. Qabrlari ham Buxoro shahridagi tepaliklarda joylashgan mozorda ekanligini taxmin qiladi.

Xoja Xasan Ondoqiy – Safiyning ma'lumotlariga ko'ra, kelib chiqishlari Buxoro shahridan bo'lib, Ondoq deb nomlangan shaharning 3 farsahlik yerida joylashgan. Qabrlari ham Buxorodagi Shayx Abubakr Ishoq Gulobodiyning maqbaralarida joylashganligi aytiladi. U darvesh va ayolmand tarzida turmush kechirganlar. Pirlari bunday hayot tarzini o'zgartirish to'g'risida pand-nasihatlar qilganlar. "Xoja Xasan aytibdurlar: "Mening holim bir vajhedurkim, boshqa hech ishga majolim yo'q turur". Hazrati Xojag'a ul so'zdin g'ayrat bo'lib, olorg'a itob ettilar va qotig'so'z oytdilar. Ul oqshom hazrati Haq subhanohu va ta'oloni tushda ko'rdilar. Oydi: "Yo Yusufu, inna a'taynokal basaratu va a'tayno

Hasanal-basorota va-l-basiyrat”, ya’ni “Ey, Yusuf, senga aqling binolig‘in berdim va Hasang‘a aqlning va ko‘ngulning binolig‘in berdim”. Xizmati Xoja Yusuf ul tushni ko‘rganlaridan so‘ng olorni bag‘oyat aziz tutdilar va umuri dunyaviydan hech amrga taklif etmadilar” [6].

Xoja Ahmad Yassaviy – Xoja Yusuf Hamadoniyni uchinchi xalifalari bo‘lib hisoblanadi. Asli Yasslik bo‘lib, Arslonbobdan ilk ta’limni olganlar. Rivoyatlarga ko‘ra, Arslonbob hazratlari payg‘ambarimiz Muhammad sallolu alayhi vassalamning bashoratlariga ko‘ra Yassaviyni tarbiyat etadilar. Yassidan so‘ng ilmni Buxoroda o‘rganib, navbatlari kelgach ushbu shaharda xalqni da’vat etadilar. Keyinchalik g‘aybiy ishoratdan so‘ng ushbu dargohni G‘ijduvoniya qoldirib, oz‘ari Yassiga ketadilar va 63 yoshlarida yer ostida hujrada “Chilla” saqlab, ilm, toat-ibodat bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Qabrlari ham Yassi shahrida joylashgan.

Hazrati Xoja Abdulholiq G‘ijduvoni – Xojagon tariqatining asoschisi va ruhiy rahnamosi sifatida ma’lum va mashhur bo‘lib, “Silsila Sharif” da o‘ninchi halqaning ustozidirlar. 1103-yilda Buxoro shahrining G‘ijduvon tumanida tavallud topganlar, vafotlari ham shu yerda. Bugungi kunda qablari qadamjoga aylantirilgan. Otalari Abduljamil imom Imom Molik avlodidan edilar. Voliydalari esa Rum Podshohlarining avlodlaridan bo‘lgan. Safiy o‘z asarida Abduljamil imom Hizr alayhis salom bilan suhbatdosh bo‘lgan. “Hizr alayhis salom oni Hazrati Xojaning vujudig‘a bashorat berub erdi va Abdulholiq deb od qo‘yub erdilar” [7]. Ilk ustozlari Imom Sadriddin bo‘lib, tafsir ilmini o‘rganadilar. Shu tariqa tasavvur olamlari tobora boyib, oqibat Alloh taoloning marhamati bilan u muborak zot naqshbandiya tariqatida zikri xafiy (xufiya) va vuqufi adadiy shakllanishiga asos qo‘yadilar [6]. Bu kishining tarbiyatlari bilan Hizr alayhissalom shug‘ullanadilar va farzandlikka qabul etadilar- deydi Safiy o‘z asarida. Ushbu tasavvuf durlari bo‘lmish shayxlarning qimmatli rashhalari bugungi kun uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda.

Natijalar. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni farzandi ma’naviylari bo‘lmish Xoja Avliyoyi Kabirga atab odob to‘g‘risida vasiyatnoma yozib qoldirganlar.

Rashhada keltirilgan odob-axloqqa doir fikrlar nafaqat olimlar uchun balki butun xalqqa qilingan murojaat edi. Jumladan, ilm-u odob va taqvoga har qanday holatda lozim bo‘lmoqlik, johil so‘fiylardan uzoqroq yurishni, namozni jamoat bilan o‘qishni, sharti shuki imom va muezzin bo‘lmaslik, sababki, shuhratga uchmaslik; fiqh va hadis ilmini o‘rganmoqlik, halol yemoqlik, shubhadan uzoq turmoqlik, ko‘p kulmaslik, qahqaha aytib kulmoqlikdan saqlanish, oz so‘zlamoq, oz yemoq, oz uxlamoq, hech kimdan narsa kutmaslik va hech kimga ish buyurmaslik, hokisor bo‘lmoqlik kabi rashhalar barcha uchun birdek dasturulamal edi. Shayxlarning yozib qoldirgan rashhalari aslida qaysi zamonga oid bo‘lmasin barchasida inson kamoloti masalasi asosiy o‘rinni egallagan. Shuning uchun ham bugungi kunda ham ushbu rashhalarning qimmatlilik darajasi ozgina bo‘lsa-da o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Birinchi rashha – hush dar dam. Ushbu rashhadan murod shuki, inson har doim, har nafasda hushyor, sergak bo‘lmog‘i lozim. Insonning ichidan chiqayotgan har bir nafasi ogohlik va huzur bo‘lishi kerakki, unga g‘aflat hech yo‘l topmasin. Doimo Allohning zikri bilan mashg‘ul bo‘lish, uni yodida tutish lozim.

Ikkinchi rashha – nazar bar qadam. Bu rashhada ikki xil ma’no anglanadi ya’ni tashqi ma’noda yo‘liga diqqatlik ila qadam bossin, gunohga bormasin. Ichki ma’nosi esa “tariqat yo‘li”dan hech qayerga og‘may yurish.

Masnaviy:

Kam zada behamdamiyi xush dar dam,

Dar nagzashta nazarash az qadam.

Baski, zi hud karda ba sur’at safar

Boz namonda qadamash az nazar.

(Hushyorliksiz biror nafas ham olmagan,

Nazari qadamidan o‘zga yerda bo‘lmagan.

U o‘zligidan sur’at bilan safarga, ya’ni uzoqqa ketgan,

Har bir qadami nazardan holi bo‘lmagan).

So‘fi Olloyor “Sabot ul-ojizin” da mazkur rashhaga ishora qilib yozgan:

Kel, ey mo‘min, agar tarsanda bo‘lsang,

Ko‘zingni saqlagil qayda bo‘lsang [5].

Uchinchi rashha – safar dar vatan. Safar qilish ham ikki xil ma’noda ifodalanadi. Mashaqqatli safarga chiqish ila toblanish; vatanda turib o‘zining qalbiga safar qilish, nafsiga sabr qilish kabi tahlil etish mumkin. Tariqat shayxlarining fikricha, ibtidoda safar qiluvchiga parishonlikdan o‘zga foyda yo‘q. Solik bir aziz kishining sihbatiga yetdimi, sabr qilishi, xojagonlarning tajribasini qo‘lga kiritishi va shundan so‘ng istagan joyiga safar qilishi mumkin.

To‘rtinchi rashha – xilvat dar anjuman. “Xilvat” – yolg‘iz, tanho qolish demakdir. Ushbu rashhaning ma’nosi anjumanda, ko‘pchilik orasida tanho qolish ya’ni o‘zini yolg‘iz his qila olishdir. Tariqatga ko‘ra jamoat orasida bo‘lsa ham Alloh yodi bilan tanho qolish, aslo uni unutmaslik tushuniladi. BAhouddin Naqshaband ham asosan shu yo‘lni tanlaganlar. Chunki yolg‘izlikda zikr qilish oson. Anjumanda chalg‘imay Alloh yodi ila qolish mushkuldir.

Beshinchi rashha – yodkard. Forschadan “eslamoq” degan ma’noni anglatadi. Inson zikrda bo‘lsagina, tili, qalbi poklanib turadi. Rashhalarning ham barchasining asosiy mazmuni shunday: insonni poklikka, kamolotga chorlash.

Oltinchi rashha – Bozgasht. Orqaga qaytish ya’ni asl maqsadiga qaytish. Ibodatdan maqsad ham Allohning roziligiga erishish.

Muhokama. Keyingi rashha – nigohdosht. U qalb eshigi oldidagi dunyoviy vasvasalarni ichkariga kiritmaydi. Nigohdosht yo‘li – ko‘ngilga sohib bo‘lib, unga Alloh sevmaydigan narsalarni kiritmaslikdir. Nigohdosht-ul iboratdur muroqabayi havotirdin, ondog‘kim bir damda necha martaba “kalimayi toyyiba”ni oyturkim, xavotiri g‘ayrig‘a tashqari ketmas [7].

Sakkizinchi rashha – yoddosht. Banda Allohni doimo zavqu shavq bilan yodida tutadi. O‘zi erishgan kamolot bosqichini himoya qiladi. Tili ila aytmay qalbi bilan zikr qilish nigohdosht bo‘lsa, yoddosht – nigohdoshtda mustahkam turmoqlikdir.

To‘qqizinchi rashha – Vuqufi qalbiy. Inson qalbidan doimo xabardor bo‘lishi lozim. Har ishni aql tarozida tortib ko‘rmog‘I kerak.

O'ninchi rashha – Vuqufi adadiy. Ahli ko'ngil vakillari, toliblar zikr adadiga rioya qilishi lozim. Ma'lum bir jummalarni bir nafasda aniq sanoqda aytishni mashq qila olishi lozim. Bundan maqsad, adadga rioya qilinsa inson o'z hayolini ham nazorat qila oladi.

O'n birinchi rashha- Vuqufi zamoniy. So'fiy vaqtini doimo qadrini, sarhisobini bilishi kerak. "Rashohot" asarida keltirilishicha, Hazrat Naqshband ushbu rashhalardan rioyati adadni lozim sanamaslar ham vuqufi qalbiyni muhim tutkanlar.

Xulosa. Ahmad Yassaviy hazratlari aytgnlaridek "Tariqat yo'llarining xatari ko'b". Ushbu rashhalarining tahlil qilishdan maqsad har bir zamon uchun mos keluvchi ushbu o'gitlarni, qoidalarni yanada chuqurroq o'rganishdir. Insonning kamoloti avvalo, qalbni poklash ila boshlanadi va Allohni doimo zikr qilib turish lozimdir. Har bir tasavvuf shayxlarining hunarlari bo'lgan. Bundan murod shuki, halol luqma ila yemoq, qo'lni hunarda qalbni Allohga bog'lamoqdir. Shundagina ma'naviy hayot komillikka ko'tarilib boraveradi. Ilm o'rganmoq va uni sabr bilan amalda qo'llamoq olimlarimizning tavsiyalaridir. Qolaversa, har ilmni o'z ustozidan olmoq lozim.

"Ey tolib, agar haqni talab qilib, tobay desang, andog' pirga qo'l bergilkim, shariatda orifi billoh bo'lsa, tariqatda, voqifi asror bo'lsa, haqiqatda komilu mukammal bo'lsa, ma'rifatda daryoi ummon bo'lsa, andoq pirga qo'l bergilkim, saodat bo'lg'ay" [7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdulhakim Shariy Jo'zjoniy. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati, 2-tom. T.: Fan, 1983.
3. Faxruddin Ali Safiy. Rashhotu aynil-hayot. T.: Abu Ali Ibn Sino, 2004.
4. Islom tasavvufi manbalari. Ilmiy majmua. T.: O'qituvchi, 2005
5. Sayfiddin Sayfulloh. Xojagon-naqshbandiya (asoslar va rashhalar). T.: O'zbekiston, 2020.
6. Suyundik Mustafo Nurotoiy. Yetti piri komil. T.: Factor press, 2023.
7. Umid Mavlyanov. Faxruddin Ali Safiy. T.: Mumtoz so'z, 2016.